

3-SEKTORDA FUTBOL MUSOBAQASI BOSHLANDI

Bugungi kunda mamlakatimizda sportga va yosh avlodni kamol toptirishga katta e'tibor berilib, sportga qiziqqan o'g'il-qizlarimiz uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda.



~~Bugun Qo'shtepa tumanidagi 23 umumiy o'rta ta'lim maktabining o'yingohida 3 sektor mahallalari o'rtasida yoshlar bilan o'tkazilayotgan futbol musobaqasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Musobaqa boshida yurtimiz madhiyasi yangrab, ishtirokchilar unga jo'r bo'lishdi.~~



Tadbirda tuman IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari S.Abdullayev qatnashib ishtirokchilarga omad tiladi.



Tadbir davomida o'yinga starat berildi va mahallalararo futbol o'yinlari boshlandi. Musobaqa so'ngida g'oliblarga 3-sektor rahbarining diplom va qimmatbaho sovg'alari topshiriladi.

